

25-Mart, 2025-yil

RIVOJLANISHDA MUJASSAM NUQSONGA EGA BO‘LGAN BOLALAR BILAN KORREKSION-PEDAGOGIK YORDAM TIZIMIDA OILANING ROLI .

Jo‘raboyeva Mushtariy Erkin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Defektologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rivojlanishda mujassam nuqsonga ega bolalar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boorish hamda bu ish jarayonida oilaning ro‘li haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *mujassam nuqson , oila , ijtimoiy muhit , nutqiy aloqa , korreksion tizim , pedagogik tizim .*

Nutq faqat inson uchun xos bo‘lgan alohida va yuqori darajadagi aloqa shaklidir. Nutqiy aloqa jarayonida kishilar fikr almashadilar va bir-birlariga ta‘sir etadilar, nutqiy aloqa til orqali amalga oshiriladi.

Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biri bo‘lib, to‘g‘ri rivojlangan nutq bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun eng muhim shart hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik boy va to‘g‘ri bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini bayon qilish osonroq bo‘ladi, tengdoshlari va kattalar o‘rtasida to‘laqonli munosabatlarni amalga oshiradi, aqliy rivojlanishi shunchalik faol bo‘ladi. Shu sababli bola nutqini o‘z vaqtida shakllantirish, uning sofliги va to‘g‘riligiga, nutqida kamchilklarga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish zarur.

Rivojlanishda mujassam nuqsonga ega guruh bolalarida hissiy-iroda sohalorida ham kamchiliklar kuzatiladi. Ayrim bolalarda hissiy-iroda sohasidagi kamchiliklar ruhiyatini yemirishi, tormozlanganlik, qo‘rquv, kayfiyatining tez-tez o‘zgarishi kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa, ayrim bolalarda qo‘zg‘aluvchanlikning ortishi, asabiylashganlik, yig‘loqilik, atrofdagi odamlarga va muhitga nisbatan norozilik xislatlarida aks etishiga sabab bo‘lsa, yana boshqa bolalarda atrofdagi voqea-hodisalarga va odamlarga befarqlik, irodasizlik kabi xislatlar keltirib chiqaradi.

Shuni tan olish kerakki, rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bola tarbiyalanayotgan hech bir oilani, uning oila a‘zolari o‘rtasidagi murakkab munosabatlar muammosi chetlab o‘tmaydi; bunday oilalarning har birida bolani oilaviy sharoitda tarbiyalash va hayot tarzini tashkil etishga nisbatan ko‘pgina muammolar paydo bo‘ladi.

Rivojlanishda bir qancha nuqsonlar bilan tug‘ilgan bola ota - onalarni esankiratib qo‘yadi. Ko‘pincha bu kuchli psixologik stress holida kuzatilib, ota - onalar qo‘rquv va o‘zlarini yo‘qotib qo‘yganlik holatida bo‘ladi. Ruhiy ezilish, ta‘sirchanlik, indamaslik, o‘zining to‘laqonli emasligidan siqilish va aybdorlik hissi doimo bunday ko‘pgina oilalarning “ hamrohi ” bo‘ladi. Mana shuning oqibatida oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni buzilishi, har bir oila a‘zosini o‘z muammolari doirasida o‘ralashib qolishi sodir bo‘ladi.

25-Mart, 2025-yil

Psixologik stressni bartaraf etishning shartlaridan biri ota - onalarni bola tarbiyasi bilan bog‘liq faol faoliyatga kirishishidir. Ularning ko‘pchiligi asta-sekin o‘z bolasiga yordam berishning aniq yo‘llarini topishga kuch topadi va kirishadi. Mutaxassisning maqsadi- ota - onalarga ta‘lim va tarbiya fanlarini o‘zlashtirishga yordam berish. Oxir oqibat, ota- onalar mujassam nuqsonga ega bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirishda, butun korreksion - pedagogik yordam ko‘rsatish tizimining muhim ishtirokchilari ekanliklarini anglashlari kerak.

Mujassam nuqsonga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning samaradorligi to‘liqligicha barcha korreksion - pedagogik jarayonning ishtirokchilari va ota - onalarning kelishilgan va hamkorlikdagi faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, ularning har biri bolaning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Shunga qaramasdan , bu jarayondagi asosiy rol bolaning yaqinlariga ajratiladi. Oila - bu qadrdon uyi bo‘lib, bunda bola yashaydi, o‘ynaydi, olam va odamlarni tanishag o‘rganadi. Qalban yaqinlik, o‘zaro mehr - muhabbat , bolaga nisbatan ijobiy hissiy munosabat uning uchun murakkab va qiyin bo‘lgan ta‘lim va tarbiya jarayoniga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bunday bolaning kelajagi unga nisbatan har tomonlama mohirona, ziyraklik bilan yondoshuvga bog‘liq, bunda yaqinlarining roli beqiyosdir.

Bolalarni tarbiyalashda ota- onalarning katta ulushi ilk bolalik davriga to‘g‘ri kelib, bu davrda yetakchi faoliyat bola bilan hissiy muloqat hisoblanadi. Bu bosqichda psixomotor funksiyalar rivojlanadi, nutqni egallashning asosiy sharti, taqlid qobiliyati shakllanadi. Ota- onalarning vazifasi - rivojlanayotgan funksiyalarga yo‘naltirishdir, ammo buni mantiqsiz amalga oshirmasliklari kerak. Rivojlanishni korreksiyalashga qaratilgan tadbirlarni belgilangan tizimda amalga oshirish zarur. Bunday ta‘sir dasturi pedagog, psixolog shifokorlar bilan hamkorlikda tuziladi. U turli xil mashqlarni kun tartibi, bola bilan o‘ynash va sayr vaqtida bajarishni o‘z ichiga qamrab olishi mumkin. Mutaxassislar tavsiyasiga asosan ota - onalar zarur rivojlantiruvchi o‘yinlar va o‘yinchoqlar, rasml materiallar va boshqalarni oladi.

Maktab davrida bolalarning muloqat doirasi kengayadi, faoliyat turlari murakkablashadi, ularning mustaqillik darajasi ortadi. Ta‘lim jarayoni davom etadi va chuqurlashadi, va bunda ota - onalarning vazifasiga o‘zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish , shuningdek, ularni yangi ma‘lumotlar va ko‘nikmalar bilan boyitish ham kiradi. Bu davrda bolalardama‘lum qiziqishlar paydo bo‘ladi va shunga ko‘ra ularning har biri yoqtirganishiga e‘tibor qarata boshlaydi. Bunda ota- onalar bolalarining yaqin do‘stlari va yordamchilari bo‘lishi kerak.

Shu tariqa turli nuqsonlar qo‘shilib kelgan bolalar bilan kompleksyondoshuv tamoyili asosida korreksion- pedagogik ish olib borishda oilaning roli- bolaga tizimli va korreksion jarayonning barcha ishtirokchilari bilan birgalikda amalga oshiriladigan maqsadli yordam ko‘rsatishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanishda mujassam ega bo‘lgan bolalarni barvaqt aniqlash ularni maxsus ta‘limga jalb etish, har tomonlama rivojlantirish, insonparvarlik, fidoiylilik, ruhida tarbiyalash, o‘qitish, kasbga yo‘naltirish va sog‘lomlashtirish, hayotga tayyorlash va normal rivojlangan insonlar jamiyatiga moslashtirish bu ota – onalarning hamda bizning vazifamiz hisoblanadi. Nutqning rivojlanib borishida bolalarning kattalar bilan aloqa bog‘lab, suhbatlashishi muhim vosita sanaladi. Bolalardagi ilk nutqiy jarayon taqlid asosida rivojlanar ekan ularning atrof-muhit, tabiat bilan aloqasini yaxshi yo‘lga qo‘yish zarur. Ya‘ni bunda hayvonot olami bilan uzliksiz munosabatda bo‘lish orqali bolalardagi nutqiy nuqsonlarning kelib chiqishining oldini olishimiz mumkin. Bolaning rivojlanishi kechikayotganini yoki tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilayotganini sezganingiz zahoti logoped va bir qator mutaxasislarga murojaat qilishingiz lozim. Qancha erta murojaat qilsangiz, nutq hamda mujassam nuqsonlarini shuncha samarali bartaraf etishga erishish mumkin. Bu esa jamiyatimizga sog‘lom va har tomonlama yetuk barkamol avlodni mustaqil shaxs etib tarbiyalashimizga yordam beradi. Bolalarni tibbiy, ijtimoiy, psixologik tomonlama shakllantirish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, berilgan shart- sharoitdan unumli foydalanishga undamog‘imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.Y.Ayupova. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.- T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019-yil.
- 2.Ayupova M. Y. “Logopediya” Toshkent – 2019 321-327-328 bet.
- 3.Davletshin D., Mamedov K. Ibn Sinoning psixologik qarashlari. Ilmiy-ommabop to‘plam. — T.
- 4.Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2002.
- 5.G‘oziyev E. va boshqalar. Psixologiya muammolari. — T., 1999.
- 6.G‘oziyev E. Yosh psixologiyasi. — T., 1994.
- 7.L.R. Mo‘minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. - T., 2012.
8. Nurkeldiyeva D.A., Ayupova M.Y., Ahmedova Z.M. Barmoqlar mashqi va logopedik o‘yinlar. - T.: Yangi asr avlodi, 2007
9. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. - М.: Просвещение, 2003.
10. Дякова Е.А Логопедический массаж. - М.: Академия, 2003
11. Axmedova Z., M.Ayupova, M.Xamidova. Logopedik o‘yin, - T.: Faylasuflar, 2013
12. Ayupova M.Yu. Logopediya. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007